

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLNAZAROV BAXODIR AZAMOVICH

**TABIIY POLISAXARIDLAR SOPOLIMERLARI ASOSIDA YUQORI
BO‘KUVCHAN VA BIOPARCHALANUVCHAN GIDROGELLAR OLIH
TEKNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor (DSc)

Xolnazarov Baxodir Azamovich

Tabiiy polisaxaridlar sopolimerlari asosida yuqori boʻkuvchan va bioparchalanuvchan gidrogellar olish texnologiyasini ishlab chiqish3

Xolnazarov Baxodir Azamovich

Разработка технологии получения высоконабухающих и биоразлагаемых гидрогелей на основе сополимеров природных полисахаридов.....27

Kholnazarov Bakhodir

Development of technology for obtaining high-swelling and biodegradable hydrogels based on copolymers of natural polysaccharides.....51

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLNAZAROV BAXODIR AZAMOVICH

**TABIIY POLISAXARIDLAR SOPOLIMERLARI ASOSIDA YUQORI
BO‘KUVCHAN VA BIOPARCHALANUVCHAN GIDROGELLAR OLIH
TEKNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/T3551 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (termizdu@umail.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raxmanberdiyev Gappar Raxmanberdievich
kimyo fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Beknazarov Xasan Soyibnazarovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli Ilmiy kengashning «_____» _____ 2023-yil soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.A.Umbarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent.

Sh.A.Kasimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., dotsent.

R.V.Aliqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, dotsent.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo aholisining va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yuqori sur‘atlarda o‘sib borishi natijasida ichimlik suvi va suv tejamkor polimer mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj yildan yilga oshib bormoqda. Suv taqchilligi sababli ekinlar hosildorligi kamayib bormoqda. Ushbu muammolarni hal etilishida o‘zida ko‘p miqdorda suvni yutadigan, saqlaydigan va qurg‘oqchilik paytda o‘simliklarga ildiz tizimi orqali osonlik bilan qaytarib beradigan ekologik toza, arzon qishloq xo‘jaligi gidrogellarini sanoat darajasida ishlab chiqarish va ulardan amalda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yuqori sorbsion xususiyatli gidrogellar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tabiiy polisaxaridlar sopolimerlari asosida bioparchalanuvchan, o‘zida ko‘p miqdordagi suv va mineral o‘g‘itlarni saqlaydigan, suv tanqisligi sababli foydalanilmay kelayotgan yerlardan hosil olish imkonini beradigan, mineral o‘g‘itlarni tuproqning unumdor qatlamida saqlashi hisobiga, uning sarfini kamaytiradigan va tuproqqa atmosfera yog‘inlari yoki sug‘orish yo‘li bilan o‘tgan suvni o‘simliklar ildiziga bemaol o‘tadigan holatda saqlashi hisobiga suv sarfini tejaydigan, ichki bozorda import o‘rnini bosuvchi, ekologik toza va arzon yuqori bo‘kuvchan qishloq xo‘jaligi gidrogellarini olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo‘nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy bozorni import o‘rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta‘minlash sohasida keng ko‘lamli qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida»¹ iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirish masalalari alohida belgilab qo‘yilgan. Bu borada, jumladan, mahalliy xomashyolar asosida suv tejamkor polimer materiallarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3246-sonli “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Polisaxaridlar asosida yangi polimer gidrogellarni olish hamda ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan: Institute of Technology (AQSh), State University New Jersey American Chemical Society (AQSh), Rossiya kimyo-texnologiya universiteti, Sumitomo Chemical (Yaponiya), Creative Engineering Plastics markazi (Janubiy Koreya), School of Soil and Water Conservation, Beijing Forestry University (Xitoy), Dutch Polymer Institute (Germaniya), Cambridge University (Angliya), School of Engineering University (Hindiston), Center for Computational Materials Science, Institute of Physics, Slovak Academy of Sciences (Slovakia), Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda turli polisaxaridlardan foydalanilgan holda yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish usullarini ishlab chiqishga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: xitozan sopolimerlari asosida qishloq xo'jaligi gidrogellarini olishning optimal sharoitlari ishlab chiqilgan (World Academy of Science, Engineering and Technology (Hindiston), selluloza sopolimerlari asosida bioparchalanuvchan gidrogellar olingan (Departamento de Química, Universidade Estadual de Maringá (UEM) (Brazilya), akrilamid monomeri va karbamid asosida yuqori bo'kuvchan qishloq xo'jaligi gidrogellari olingan (Muhammadiyah nomidagi Sukabumi Muhammadiyah universiteti Indoneziya), akril kislota asosida qurilishda ishlatiladigan gidrogellar olish sharoitlari o'rganilgan (ACS Sustainable Chemistry Engineering (Kitay), gidrolizlangan poliakrilonitril asosida qishloq xo'jaligi gidrogellarini olishning optimal sharoitlari ishlab chiqilgan (Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti, O'zbekiston).

Jahonda polisaxaridlar va ularning hosilalari asosida suvda yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: polisaxaridlar asosida ekologik toza va arzon yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish; yuqori bo'kuvchan gidrogellarning xossalariga polisaxaridlar ta'sirini aniqlash; yuqori bo'kuvchan gidrogellarning xossalariga minerallarning ta'sirini asoslash; gibrid polisaxaridlar asosida bioparchalanuvchan gidrogellar olish texnologiyalarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suvda yuqori bo'kuvchan gidrogellar sintezi va olish texnologiyasini rivojlantirish borasida xorijda S.D. Zhang, Salih Muharam, S.K. Gulrez, Alessandro F. Martins, N. Dairi, R. Nuisin, S.Al-Assaf,

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

A.Abidin, M.R. Lutfor, M.Z. Rahman, M.J. Zouhuriaan-Mehr, K.Kabiri, A.I.Jushman, D.E. Garli, C.Ivanov, V.V. Vasilevskoy tomonidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida: A.T. Djalilov, X.X. Turaev, Sh.D. Shirinov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ular tomonidan qishloq xo‘jaligida, tibbiyotda, oziq-ovqat sanoatida, qurilishda, qadoqlashda va sanoatning boshqa bir qator sohalarida qo‘llaniladigan sintetik materiallar, tabiiy polisaxaridlar va turli jelatinalar asosli gidrogellar sintez qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy xomashyolar asosida yangi turdagi suv tejamkor va ekologik toza gidrogellarni olish quyidagi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi:

polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri va minerallar o‘rtasidagi ta’sirlashish mexanizmi va optimal sharoitini o‘rganish;

mahalliy xomashyolar asosida gidrogellar sintez qilish, fizik-mexanik, texnologik va bo‘kuvchanlik xossalarning reagentlar tabiati va massasiga bog‘liqligini aniqlash;

tabiiy polisaxaridlar sopolimerleri asosida arzon va samarali ekologik toza polimer materiallar olish texnologiyasini yaratish, ularni keng ko‘lamda amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-Φ7-34 raqamli «Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba’zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari» (2017-2020-yy.), №-137/14 «Mahalliy xomashyolar asosida suv va mineral resurslarni tejovchi, suvda yuqori bo‘kuvchan va bioparchalanuvchan gidrogellar ishlab chiqarish» (2021-2022-yy.), mavzusidagi fundamental va tijoratlashtirish loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi polisaxaridlar sopolimerleri asosida tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos bo‘lgan samarali, yuqori bo‘kuvchan va bioparchalanuvchan gidrogellar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tarkibida tabiiy polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, tabiiy minerallar turli xil bog‘lovchi va inisiatorlar bo‘lgan yuqori bo‘kuvchan gidrogellar sintez qilishning optimal sharoitlarini aniqlash;

tabiiy polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, tabiiy minerallar – bentonit, montmorillonit, kaolin asosida olingan yuqori bo‘kuvchan gidrogellarning fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilish;

yuqori bo‘kuvchan gidrogellarning sorbsion xossalari va daslabki moddalarning konsentratsiyalari va eritmadagi ionlar zichligining ta’sirini aniqlash;

olingan gidrogellarning bo‘kuvchanlikiga distillangan suv va turli xil tuzlarning har xil konsentratsiyali eritmalarini hamda ishqoriy va kislotali muhitlarning ta’sirini tadqiq etish;

olingan gidrogellarning termik barqarorligi va bo'kuvchanligiga tabiiy minerallar - bentonit, montmorillonit va kaolin konsentratsiyalarining ta'sirini aniqlash;

olingan gidrogellarning qishloq xo'jaligida suv va mineral o'g'itlar sarfini tejashi, o'simliklar hosildorligini oshirishi, cho'llanishni oldini olishi, shuningdek, tuproq hamda yer osti suvlarini sho'rlanishini oldini olishdagi xossalarni tadqiq qilish;

tabiiy polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerlari, karbamid va tabiiy minerallar asosida yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularni qo'llash samaradorligini texnik iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida makkajo'xori kraxmali, paxta sellyulozasi, yog'och qipig'i sellyulozasi, natriy karboksimetilsellyuloza, xitozan, akrilonitril, akrilamid, limon kislotasi, akril kislotasi, karbamid, bentonit, kaolin, montmorillonit, natriy gidrokarbonat, ammoniy persulfat, N,N-metilenbisakrilamid, epixlorgidrin, glutaraldegid, kaliypersulfat olingan.

Tadqiqotning predmeti yuqori bo'kuvchan gidrogellarning fizik-kimyoviy xossalarga polisaxaridlar, gibrid polisaxaridlar, vinil monomerlari, karbamid va tabiiy minerallar, bog'lovchilar, inisiator hamda natriy gidrokarbonat ta'sirini tadqiq etish va yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar natijasida olingan gidrogellarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va morfologik xossalarni o'rganishda skanerlash elektron mikroskopiya, infraqizil spektroskopiya, termogravimetriya va differensial skanerlash kalorimetriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerlari, karbamid, limon kislotasi, tabiiy minerallar - bentonit, montmorillonit, kaolin va natriy gidrokarbonat asosida yuqori bo'kuvchan gidrogellar olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

polisaxaridlar gibridi asosida olingan gidrogellarning sho'r, kislotali, ishqoriy kabi agressiv muhitlarga chidamliligi, yuqori miqdorda suv yutuvchanligi, yutilgan suvni 48-64 sutka ushlab turish xossalari aniqlangan;

eritmada monovalent (NaCl), ikki valentli (CaCl_2) va uch valentli (AlCl_3) ionlar va bir valentli ko'p atomli kationlar (NH_4Cl) bo'lgan tuzlarning konsentratsiyalari oshib borishi bilan ionlar zichligining yuqori bo'lishi hisobiga sintez qilingan gidrogellarning bo'kuvchanligi pasayishi aniqlangan;

yuqori bo'kuvchan gidrogellarning polimer zanjiri va matritsasiga gidrofil guruhlarga boy bo'lgan polisaxaridlar gibridi va minerallar - karbamid, bentonit, montmorillonit, kaolini kiritilishi natijasida gidrogellarni suv yutuvchanligini 25% ga, suvni ushlab turish vaqti 20% ga ortishi va namni ildiz atrofida saqlashi hisobiga suv sarfining 20-25% ga kamayishi isbotlangan;

tabiiy polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridi, karbamid, bentonit, montmorillonit, kaolin va vinil monomerlari asosida olingan gidrogellar mineral o'g'itlar sarfini 17-22 % gacha kamaytirishi va o'simliklar hosildorligini 10-15 % gacha oshirishi isbotlangan;

yuqori bo'kuvchan gidrogellarni sintez qilish jarayonida natriy gidrokarbonat qo'shilganda gidrogellarda yirik g'ovaklar ko'p bo'lishi va bu g'ovaklar orqali suv va suvda erigan minerallar erkin harakatlanishi aniqlangan;

polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, tabiiy minerallar, limon kislotasi, natriygidrokarbonat asosida tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos bo'lgan, import o'rnini bosa oladigan, ekologik toza va arzon, bioparachalanuvchan, yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, tabiiy minerallar, limon kislotasi, natriy gidrokarbonat asosida mahalliy iqlim va tuproq sharoitlarida samarali ishlay oladigan yuqori bo'kuvchan gidrogellar olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

sintez qilingan yuqori bo'kuvchan gidrogellar nam va mineral o'g'itlarni ildiz atrofida saqlashi hisobiga ularning sarfini kamaytirishi, o'simliklar hosildorligini oshirishi va o'simliklarni suvsizlikdan stressga tushib qurib qolishini oldini olishi ularning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari bilan bog'liqligi isbotlangan;

sintez qilingan gidrogellarning sho'r, kislotali, ishqoriy kabi agressiv muhitlarga chidamliligi, suv yutuvchanligi, suvni ushlab turishi va yutilgan suvni kerakli paytda o'simliklarga ildiz tizimi orqali yetkazib berish xossalari aniqlangan;

tuproq, iqlim va ekin turidan kelib chiqib yuqori bo'kuvchan gidrogellarni qo'llash bo'yicha samarali usullar ishlab chiqilgan;

olingan yuqori bo'kuvchan gidrogellarning suvni bir necha bor qayta o'zlashtirishi, toksik tabiatga ega emasligi shuningdek, ish faoliyatini oxirida o'simlik va tuproq uchun zararsiz bo'lgan tarkibiy qismlarga ajralishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi fizikaviy va fizik-kimyoviy (termogravimetrik, elektron mikroskopik, rentgen fazali, IQ-spektroskopik) zamonaviy tadqiqot usullari bilan isbotlangan va ilmiy-tadqiqot natijalarining tajriba-sanoat sinovidan o'tganligi, shuningdek, amaliyotga joriy etilganligi tegishli dalolatnomalar bilan tasdiqlangan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, akrilamid, akril kislotasi, akrilonitril, karbamid va tabiiy minerallar – bentonit, montmorillonit, kaolin va natriy gidrokarbonat va bog'lovchilar ishtirokida samarali yuqori bo'kuvchan gidrogellar sintezining optimal sharoitlari aniqlanganligi va texnologiyasini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, limon kislotasi, tabiiy minerallar, natriy gidrokarbonat asosida olingan yuqori bo'kuvchan gidrogellardan qishloq xo'jaligida suv va mineral o'g'itlar sarfini kamaytirishda, o'simliklarni suvsizlikdan stressga tushib qurib qolishini oldini olishda, suv taqchil yerlardan hosil olishda va o'simliklar hosildorligini oshirishda unumli foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. polisaxaridlar, polisaxaridlar gibridlari, vinil monomerleri, karbamid, limon kislotasi, va tabiiy minerallar asosida

samarali yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasi va qo'llanilishi bo'yicha olingan natijalar asosida:

tarkibida kraxmal-sellyuloza gibridi, akrilamid, akril kislota, karbamid va tabiiy mineral – bentonit bo'lgan yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasi Oltinsoy HYDROGEL MChJda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 32-14/6371-son ma'lumotnomasi). Natijada namni ildiz atrofida saqlashi hisobiga suv sarfini 20-25% ga, mineral o'g'itlarni tuproqning unumdor qatlamida saqlashi hisobiga ularning sarfini 17-22% ga kamaytirishi bilan birga o'simliklarni suvsizlikdan stressga tushib qurib qolishini oldini oladigan va o'simliklar hosildorligini 10-15% ga oshirish imkonini beradigan samarali yuqori bo'kuvchan qishloq xo'jaligi gidrogellarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

tarkibida kraxmal-karboksimetilsellyuloza gibridi, akril kislota va montmorillonit bo'lgan yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasi Oltinsoy HYDROGEL MChJda ishlab chiqarishga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 32-14/6371-son ma'lumotnomasi). Natijada agressiv muhitlarga chidamli, termik barqaror, ekologik toza, import o'rnini bosuvchi, arzon, bioparchalanuvchan yuqori bo'kuvchan gidrogellar ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan.

tabiiy minerallar-bentonit, kaolin, montmorillonit qo'shib yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish texnologiyasi Oltinsoy HYDROGEL MChJda ishlab chiqarishga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 32-14/6371-son ma'lumotnomasi). Natijada qo'llanilgan tabiiy minerallar-bentonit, kaolin, montmorillonit gidrogellar bo'kuvchanligini 25% ga, suvni ushlab turish vaqtini 20% ga oshirish bilan birga termik barqarorligini yaxshilashi va tannarxini pasaytirishi imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan va muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shu jumladan, 7 ta maqola respublika va 7 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 185 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida natijalarning dolzarbligi va talabga mos ekanligi asoslangan, shuningdek, tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq keluvchi maqsad va vazifalari shakllantirilgan; tadqiqotning obyektlari va predmeti keltirilgan; ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan; olingan tadqiqot natijalarining ilmiy

yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan; nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Yuqori bo'kuvchan gidrogellar olishning zamonaviy usullari va ahamiyati**» deb nomlangan birinchi bobida polisaxaridlar sopolimerlari asosida yuqori bo'kuvchan gidrogellar olishning zamonaviy usullariga doir adabiyotlarning tahlili keltirilgan. Adabiyotlardagi ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, yuqori bo'kuvchan gidrogellarni olishda minerallar, polisaxaridlar, polisaxaridlar gibrirlaridan foydalanilsa ularning bo'kuvchanligi oshadi, morfologiyasi o'zgaradi, termik barqarorligi yaxshilanadi, sho'r, ishqoriy va kislotali agressiv muhitlarga chidamlilik xossalari yaxshilanishi kuzatiladi hamda iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Bu esa ushbu ishda tadqiqotlarning aniq maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'ladi.

Dissertatsiyaning «**Tarkibida tabiiy polisaxaridlar va mineral o'g'itlarni saqlagan yuqori bo'kuvchan gidrogellar sintezi**» deb nomlangan ikkinchi bobida qo'llanilgan materiallarning asosiy xarakteristikalarini va tadqiqot usullari haqida, hamda kraxmal va sellulozani epixlorgidrin bilan o'zaro bog'lanishi natijasida olingan polisaxaridlar gibridi, akril kislota, akrilamid, karbamid, bentonit va natriy gidrokarbonat asosida (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK), kraxmal-natriy karboksimetilsellyuloza gibridi, akril kislota, montmorillonit va natriy gidrokarbonat asosida (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK), yog'och qipig'i sellulozasi, akril kislota, akrilamid, karbamid, bentonit va natriy gidrokarbonat asosida (YQS-PAK/KA/PAM/Bent/NGK), kraxmal-xitozan gibridi akrilamid, karbamid, bentonit va natriy gidrokarbonat asosida (Kraxmal-Xitozan/PAK/Kaolin/NGK), mikrokristall selluloza, limon kislota, karbamid asosida (MKS/LK/KA), o'zaro bog'langan kraxmal va akrilonitril sopolimeri asosida (Kraxmal-Kraxmal/PAN), o'zaro bog'langan selluloza, akrilamid, kaolin asosida (Sellyuloza-Sellyuloza/PAM/Kaolin) yuqori bo'kuvchan gidrogellarni sintez qilish bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Tabiiy polisaxaridlar va minerallar asosida olingan yuqori bo'kuvchan gidrogellar xossalari tadqiqoti**» bo'yicha olingan natijalarning tahliliga bag'ishlangan. Bu bobda olingan yuqori bo'kuvchan gidrogellarning asosiy fizik-kimyoviy xossalari o'rganish natijalari keltirilgan.


Kraxmal va sellulozani gibridi, akril kislota, akrilamid, karbamid, bentonit va natriy gidrokarbonat asosida olingan (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) gidrogelning IQ-spektridagi 3130,47 va 3043,67 cm^{-1} yutilish sohalari -OH guruhining valent tebranishi natijasida namoyon bo'ladi. 1681,93 va 1651,07 cm^{-1} yutilish sohalari bog' hosil qilishda qatnashgan mochevina hosilalarini -HN-CO-NH- va erkin NH_2 funksional guruhlarni ifodalaydi. 1714,72 cm^{-1} yutilish sohasi karboksil -COOH va uning tuzlariga -COONa tegishli deformatsion tebranish hisoblanadi. 2920,23-2852,72 cm^{-1} yutilish sohalari metil - CH_3 va metilen - CH_2 guruhlarining asimmetrik va simmetrik valent tebranishlarini najasida namoyon bo'lgan. 1440,83 va 1402,25 cm^{-1} yutilish sohalari metil guruhining asimmetrik va simmetrik deformatsion tebranishlari hamda metilen guruhining qaychisimon tebranishlari natijasida yuzaga kelgan. 1024,2 va 1064,7 cm^{-1} yutilish

sohalari Si-O guruhlarini mavjudligini bildiradi (1-rasm).



1-rasm. Hidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) IQ-spektri

Olingan gidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) termik parchalanish ma’lumotlari keltirilgan (2-rasm).




2-rasm. Hidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) termik analizi.

Gidrogelni termik analizining egri chiziqlaridan ko‘rinib turibdiki, bunda massa yo‘qotish uch bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda haroratning 27,41 dan 219,15 °C oralig‘ida qoldiq suvning bug‘lanishi va funksional guruhlarning dastlabki parchalanishi bilan bog‘liq. Bunda massa yo‘qotish -1,311 mg yoki -12,276% ni tashkil etadi. Polimerning ikkinchi massa yo‘qotishi 219,15°C dan 391,20 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida kuzatiladi. Bunda zanjirdagi amin, karboksil va karbonil guruhlarning to‘liq parchalanishi kuzatiladi va massa

yo‘qotish -5,067 mg yoki -47,448% ni tashkil etadi. Uchinchi massa yo‘qotish 391,20 dan 701,68 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida kuzatiladi bunda polimer zanjirlarining parchalanishi kuzatiladi, massa yo‘qotish esa -1,169 mg yoki -10,947% ni tashkil etadi. Termik analiz natijalari asosida ma‘lum bo‘ldiki gidrogellarni sintez qilish jarayonida polisaxridlar gibridi va tabiiy mineral bentonit qo‘shilganda gidrogelning termik barqarorligi yaxshilanganligi kuzatildi.

Olingan yuqori bo‘kuvchan gidrogellar namunalarining sirt morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskopiya yordamida aniqlandi. Namunani sinovdan o‘tkazish uchun u oltin kukuni bilan qoplandi. Namuna sirtini oltin bilan qoplashda QUORUM Q150 RS asbobidan foydalanildi.


Skanerlovchi elektron mikroskopiya yordamida olingan natijalar keltirilgan (3-rasm). Gidrogellarni sintez qilish jarayonida qo‘shilgan bentonit va natriygidrokarbonat ularning morfologiyasini o‘zgartirgani aniqlandi. Gidrogelining (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA) skanerlovchi elektron mikroskop yordamida olingan tasviridan ko‘rinish mumkinki, undagi g‘ovaklar kichikroq va bentonit zarrachalari ko‘rinmaydi (3-rasm (b)). Yuqori bo‘kuvchan gidrogellarni sintezida bentonit va natriy gidrokarbonat qo‘shilganda polimer zanjirda kichik va kattaroq g‘ovaklarning ko‘payishi kuzatildi (3-rasm (c)). Bentonit polimerda gidrofil guruhlarni ko‘paytirish bilan birga kichik g‘ovaklarni ham hosil qiladi. Gidrogellardagi gidrofil guruhlarni va hosil bo‘lgan katta-kichik g‘ovaklar suvni gidrogelning ichki qismiga tezroq kirib borishini ta‘minlab uning bo‘kuvchanligini oshiradi va bo‘kish vaqtini qisqartiradi.



3-rasm. (a) Bentonit, (b) Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA (c) Kraxmal-Sell-PAK/PAM/KA/Bent/NGK va (d) Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK gidrogelning suvda bo‘kkan holati.

Olingan yuqori bo'kuvchan gidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) taxminiy tuzilish formulasi tadqiqotlar natijalari asosida quyidagicha ifodalandi (4-rasm).

Gidrofil guruhlarga boy bo'lgan polisaxaridlar gibridi, karbamid va bentonit mahalliy tuproq va iqlim sharoitlariga mos bo'lgan, agressiv muhitlarga chidamli, arzon va bioparchalanuvchan gidrogelni sintez qilishda imkon beradi. Gidrogellarning polimer zanjiriga karbamidning kiritilish natijasida uning tuproqning unumdor qatlamida saqlanishi hisobiga o'g'it sarfi kamaydi. Polimerlanish jarayonida qo'shilgan epixlorgidrin va metilenbisakrilamid polimer mahsulotning molekulyar massasini oshirganligi va suvda erib ketishini oldini olishi isbotlandi. Shuningdek, gidrogellarni sintezida polisaxaridlar gibridlaridan foydalanilganda ular polimer mahsulotning biomassasini oshiradi natijada mahsulot ish faoliyatining oxirida atrof-muhitga chiqindi qoldirmasdan parchalanib o'g'itga aylanib qoladi. Yuqori bo'kuvchan gidrogellarni olishda qo'shilgan natriy gidrokarbonat reaksiya jarayonida parchalanib ko'piklarni hosil qiladi. Ko'piklardagi gazning chiqib ketishi natijasida gidrogellarda yirikroq g'ovaklar hosil bo'ladi va bu g'ovaklar suv va unda erigan minerallarning erkin harakatlanishiga imkon beradi.




4-rasm. Gidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) tuzilish formulasi.

Gidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) fizik-kimyoviy xossasiga moddalar miqdori va turli xil muhitning ta'siri o'rganildi.


Minerallarning gidrogellar bo'kuvchanligiga ta'siri o'rganilgan. Bentonit, kaolin va montmorillonit konsentratsiyalarining gidrogellar bo'kuvchanligiga

ta'siri keltirilgan (5-rasm). Bentonitning konsentratsiyasi 8%, kaolin va montmorillonitning konsentratsiyalari 6% (Sellyuloza, kraxmal, akril kislotasi, akrilamid va karbamid massasiga nisbatan) bo'lganda fizik-kimyoviy xususiyatlari yaxshi bo'lgan yuqori bo'kuvchan gidrogellar olindi. Bentonit, kaolin va montmorillonit suvda bo'kish xususiyatiga ega, gidrogellarni sintez qilish jarayonida bu minerallardan foydalanilganda yuqori bo'kuvchan gidrogellar olish imkonini berdi. Bentonit tarkibida mavjud bo'lgan TiO_2 , Fe_2O_3 , MgO , CaO , Na_2O , K_2O , P_2O_5 , SO_3 , FeO qo'shimcha oksidlar polimer zanjirning bog'lanish nuqtalariga ta'sir qilib zanjirning o'sishiga to'sqinlik qiladi natijasida polimerning molekular massasi pasayadi. Molekulyar massaning kamayishi natijasida polimer zanjirdagi gidrofil guruhlar ham kamayadi natijasida gidrojel bo'kuvchanligining pasayishi kuzatiladi.




5-rasm. Bentonit (■), kaolin (■) va montmorillonit (■) minerallarining gidrogellar bo'kuvchanligiga ta'siri

Gidrogellarning bo'kuvchanligiga choklovchi reagent - metilenbisakrilamid (MBA) konsentratsiyasining ta'siri o'rganilgan (6-rasm).




6-rasm. MBA konsentratsiyasining gidrojel bo'kuvchanligiga ta'siri.



7-rasm. KPS konsentratsiyasining gidrojel bo'kuvchanligiga ta'siri.

Bog'lovchi konsentratsiyasining 1% dan (akril kislota va akrilamid massasiga nisbatan) oshib borishi natijasida polimer zanjirda bog'lanishlar sonining oshib ketishi va bog'lanishlar tartibsiz bo'lishi hisobiga polimer zanjirda qo'shimcha tarmoqlar shakllanishi kuzatildi, natijada gidrogellarning bo'kuvchanligi pasayadi.

Gidrogellarning bo'kuvchanligiga inisiator kaliypersulfat (KPS) konsentratsiyasining ta'siri o'rganilgan (7-rasm). Inisiator birinchi navbatda polimerlar zvenosining tashqi qismida joylashgan gidroksil va karboksil guruhlarga hujum qiladi va erkin radikallarni hosil qiladi. Inisiator (KPS) konsentratsiyasi 2% bo'lganda (Sellyuloza-Kraxmal gibridi, akril kislota, akrilamid massasiga nisbatdan) gidrogelning suv yutuvchanligi yuqori bo'ladi. Inisiatorning miqdori oshiganda juda ko'plab radikal markazlar hosil qiladi bu esa monomerlarning tartibsiz bog'lanishiga olib keladi. Shuningdek, qo'zg'atuvchining miqdori ortishi bilan reaksiya jarayoni muddatidan oldin tugaydi, buning natijasida reaksiya hosildorligi va gidrogelning bo'kishi keskin kamayadi.



8-rasm. Reaksiya haroratining gidrogel bo'kuvchanligiga ta'siri.

Boshqa parametrlar o'zgartirilmagan holda 30 dan 80°C gacha bo'lgan reaksiya haroratining gidrogel bo'kish darajasiga ta'siri o'rganildi (8-rasm). Olingan natijalardan tushunish mumkinki reaksiya 70°C da olib borilganda gidrogelning bo'kuvchanligi sezilarli darajada oshgan. Reaksiya past haroratda olib borilganda polimerning polimerlanish darajasi past bo'ldi va hosil bo'lgan zanjir


qisqa bo'lganligi uchun gidrogelning suv yutish qobiliyati ham pasaydi. Reaksiya harorati va reaksiya vaqtining oshib ketishi monomerlarning o'zaro bog'lanish darajasini oshirdi, natijada gidrogellarning bo'kuvchanligining pasayganligi aniqlandi.

Gidrogellarning suvni uzoq vaqt ushlab turishi ekinlarning oziqlanishini va to'g'ri parvarishlanishini, ayniqsa suv taqchil hududlardan yuqori hosil olishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Gidrogellardagi g'ovaklar katta bo'lsa osmotik jarayon natijasida matritsa markaziga suv juda tez kirib boradi. Yuqori konsentratsiyali monomerlar eritmalarining polimerizatsiyasi jarayonida ko'pik hosil qiladigan moddalar qo'shilmasa reaksiya mahsuloti zich bo'lib qoladi. Shu sababli g'ovaklarni saqlab qolish uchun ko'pik hosil qiladigan reagent qo'shildi va olingan mahsulotni suvsizlantirish uchun etil spirtidan foydalanildi. Shuningdek, olingan gidrogel etanol yordamida suvsizlantirilganda uning g'ovaklarini qisqarishini oldini oldi. Mahsulotdan etanolni qisqa quritish natijasida olib tashlash mumkin. Bu jarayonda reaksiyaga kirishmay qolgan qoldiq mahsulot ham olib tashlanadi.


Distillangan suvda to'liq bo'kkan gidrogel 35°C haroratda saqlandi va uning suvni bug'latishi har 4 kunda kuzatildi. Suvning bug'lanishini aniqlash uchun 3 ta

tajribaning o'rtachasi olindi. Hidrogelning suvni ushlab turish vaqtini aniqlash uchun olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan (9-rasm).


Hidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) bo'kuvchanligi pH=2-12 gacha bo'lganda o'rganildi (10-rasm). Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki pH=2 dan 8 gacha oshib borganda gidrogellarning bo'kuvchanligi ham oshib bordi. Shuningdek, pH=8 dan yuqori bo'lganda gidrogellarning bo'kuvchanligi keskin pasayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan shuni anglash mumkinki eritmadagi ionlar zichligi oshib borishi natijasida gidrogellarning bo'kuvchanligi ham pasayib boradi.



9-rasm. Hidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA (▲)) va (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK (■)) suvni ushlab turish vaqti.




10-rasm. Hidrogelning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK) turli pH da bo'kishi.



11-rasm. Hidrogel bo'kuvchanligiga natriy xlorid (NaCl (■)), kalsiy xlorid (CaCl₂ (■)), alyuminiy xlorid (AlCl₃ (▲)) konsentratsiyasining ta'siri.


Turli xil tuzlarning har xil konsentratsiyasining gidrogel bo‘kuvchanligiga ta’siri o‘rganildi (11-rasm). Yuqori bo‘kuvchan gidrogellarning bo‘kuvchanligiga tuzlar konsentratsiyasining oshib borishi teskari proporsional ekanligi aniqlandi. Bu hodisa eritmada tuz konsentratsiyasining oshishi natijasida ionlar miqdorining ko‘payishi va osmotik bosim farqining kamayishi bilan bog‘liq. Shuning uchun, gidrogellar past konsentratsiyali tuzlar eritmasida suvni yuqori yutish qobiliyatiga ega. Turli xil tuz eritmalarining turli xil konsentratsiyalarida gidrogellarning bo‘kish qobiliyati 35 °C haroratda tekshirildi. Gidrogellarning bo‘kuvchanligi tuzning turi va undagi kationlarning valentligiga ham bog‘liq ekanligi isbotlandi. Shuningdek, gidrogellarning bo‘kuvchanligi bir valentli ko‘p atomli kationlari bo‘lgan tuzlarda pasayganligi aniqlandi, masalan, NH₄Cl eritmasida.



12-rasm. Gidrogellarning (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA (—●—)) va (Kraxmal-Sell/PAK/PAM/KA/Bent/NGK (—●—)) distillangan suvdagi bo‘kuvchanlig vaqti.

Shuningdek, kraxmal-natriykarboksimetilsellyuloza gibridi, akril kislota, montmorillonit, va natriy gidrokarbonat asosida yangi yuqori bo‘kuvchan gidrogel (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) sintez qilingan. Gidrogelning IQ-spektrida OH va NH₂ guruhlariga tegishli chastotani 3383,14 sm⁻¹ yutilish sohasida ko‘rishimiz mumkin. 2924,09 va 2852,72 sm⁻¹ sohalarda CH₂ va CH guruhlarining valent tebranishi kuzatiladi. 1716,65 sm⁻¹ yutilish sohasi karboksil -COOH va uning tuzlariga tegishli hisoblanadi. 1635,64 sm⁻¹ yutilish sohasi -NH-CH₂-CH₂-NH-hosilalari hisoblanadi va bu -NH-CH₂-CH₂-NH- ning bog‘ hosil qilishi natijasida kuzatilgan. 1336,17 va 1556,65 sm⁻¹ sohada -COO⁻ guruning valent tebranishi hisoblanadi. 1053,13 sm⁻¹ soha Si-O-Si guruhi, 989,48 - 950,91 sm⁻¹ soha Al-O-Al guruhlari, 555,50 sm⁻¹ soha Al-O-Si guruhini borligini ifodalaydi. Gidrogelning polimer zanjirida gidroksil -OH, karbonil -COO-, kaliy karboksilat -COOK, karboilamid -CONH₂, karboksil -COOH kabi gidrofil guruhlar ko‘p ekanligi va bu gidrofil guruhlar gidrogelning bo‘kuvchanligini oshirishi aniqlandi. Ushbu gidrogelning sho‘r, kislotali va ishqori eritmalarda ham yuqori bo‘kuvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, gidrogel quruq va suvda bo‘kkandan hoida pH=7


neytral hisoblanadi. Suvni bir necha bor qayta o‘zlashtiradi, hidsiz va toksik tabiatga ega emas. Ushbu gidrogel ish faoliyatini oxirida butunlay o‘simlik uchun zararsiz bo‘lgan tarkibiy qismlarga ajraladi. Olingan gidrogelning taxminiy tuzilish formulasi quyidagicha ifodalandi (13-rasm).




13-rasm. Gidrogelning (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) taxminiy tuzilish formulasi.

Gidrogelni (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) sintez qilishda kraxmal va natriy karboksimetilsellyulozaning massa nisbatlari 1:1 va akril kislota 2 mol bo‘lganda gidrogelning suv yutuvchanligi yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Reaksiya haroratining gidrogel (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) bo‘kuvchanligiga ta’siri o‘rganilgan. Boshqa parametrlar o‘zgartirilmagan holda 20°C dan 80°C gacha bo‘lgan reaksiya haroratining gidrogel bo‘kish darajasiga ta’siri tekshirildi. Keltirilgan natijalardan tushunish mumkinki reaksiya 60°C da olib borilganda olingan gidrogelning suv yutuvchanligi sezilarli darajada oshgan.




15-rasm. Gidrogellarning bo‘kuvchanligi (Kraxmal-NaKMS/PAK—●—) va (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK —●—)



16-rasm. Gidrogelning (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) suvni ushlab turish vaqti.

Shuningdek, gidrogellarning bo'kuvchanligiga bentonit, kaolin va montmorillonit zarrachalarining o'lchami ham ta'sir qilishi aniqlandi. Ko'rinib turibdiki gidrogellarni sintez qilishda montmorillonit va natriy gidrokarbonat qo'shilganda uning bo'kuvchanlik vaqti qisqarishi bilan birga suvni yutish xossasi ham yaxshilandi (15-16-rasm). Montmorillonit to'ldiruvchi vazifasini bajaradi va bosim kuchayishiga qarshi mexanik qarshilikni yaxshilashga hissa qo'shadi.



17-rasm. Montmorillonit konsentratsiyasining gidrogel (Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK) bo'kuvchanligiga ta'siri.

Montmorillonit konsentratsiyasining gidrogel bo'kuvchanligiga ta'siri o'rganildi (17-rasm). Ko'rinib turibdiki, montmorillonit konsentratsiyasi 6% dan yuqori bo'lganda polimer zanjirning bog'lanish nuqtalariga kuchli ta'sir qiladi va zanjirning o'sishiga to'sqinlik qilishi natijasida polimerning molekulyar massasi pasayadi, natijada gidrogelning suv yutuvchanligi ham kamadi. Montmorillonit bentonitdan farqli ravishda TiO_2 , Fe_2O_3 ,

MgO , CaO , Na_2O , K_2O , P_2O_5 , SO_3 , FeO kabi qo'shimcha oksidlardan qisman tozalangan.

1-jadvalda Kraxmal-NaKMS/PAK/Mont/NGK asosli gidrogelni sintez qilishning optimal sharoitlari keltirilgan.

1-jadval

Gidrogellar bo'kuvchanligining boshlang'ich moddalar nisbati va konsentratsiyasiga bog'liqligi.

Kr:NaKMS massa nisbatda, AK molda	Mont- morillonit %	$NaHCO_3$ %	KPS %	MBA %	Reaksiya harorati $^{\circ}C$	Reaksi- ya vaqti (soat)	Suv yutuvchan lik (g/g)
1:1;2	6	2,5	1,5	0,6	60	6	822
2:1;1							636
2:2;1							524
1:1;2							780
1:2;1							615
2:1;2							752
1:2;2							790


